



**CHEGARAOLDI IQTISODIY-GEOGRAFIK O'RIN OMILLARINING
SURXONDARYO VILOYATI SANOATI RIVOJLANISHIDAGI O'RNI VA
MINTAQAVIY MUAMMOLARI.**

**Xolboyeva Marjona Xayrullayevna
Ochilova Gulasal Muzaffarovna**

Termiz davlat universiteti Geografiya ta'lim yo'nalishi
2- bosqich talabalari,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20791998>

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida Surxondaryo viloyatining o'ziga xos chegaraoldi iqtisodiy-geografik o'rni (IGO') va uning mintaqa sanoati rivojlanishiga ko'rsatayotgan ta'siri tizimli tahlil qilingan. Viloyatning uchta davlat (Tojikiston, Afg'oniston va Turkmaniston) bilan chegaradoshligi hamda xalqaro transport koridorlarida joylashganligi transchegaraviy iqtisodiy hamkorlik va eksport salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Maqolada chegaraoldi hudud bo'lishning ijobiy imkoniyatlari (logistika xablari, erkin iqtisodiy zonalar, qo'shni davlatlar bozori) bilan bir qatorda, sanoat integratsiyasiga to'sqinlik qilayotgan mintaqaviy muammolar — ekologik keskinlik (ayniqsa, transchegaraviy havo ifloslanishi), infratuzilma cheklovlari, suv resurslari taqchilligi va barqaror energiya ta'minoti masalalari yoritilgan. Tadqiqot yakunida viloyat sanoat tarmog'ini chegaraoldi omillaridan samarali foydalangan holda modernizatsiya qilish va mavjud mintaqaviy muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, chegaraoldi iqtisodiy-geografik o'rin (IGO'), sanoat rivojlanishi, transchegaraviy hamkorlik, mintaqaviy muammolar, logistika, ekologik keskinlik, sanoat integratsiyasi, eksport salohiyati.

Abstract: This research work systematically analyzes the unique frontier economic and geographical position (FEO) of Surkhandarya region and its impact on the development of regional industry. The region's border with three countries (Tajikistan, Afghanistan and Turkmenistan) and its location on international transport corridors serve as an important factor in increasing cross-border economic cooperation and export potential. The article highlights the positive opportunities of being a frontier region (logistics hubs, free economic zones, markets of neighboring countries), as well as regional problems that hinder industrial integration - environmental tension (in particular, transboundary air pollution), infrastructure constraints, water resource shortages and sustainable energy supply. At the end of the study, practical recommendations are put forward to effectively use frontier factors to modernize the regional industrial sector and eliminate existing regional problems.



Keywords: Surkhandarya region, frontier economic and geographical location (FEG), industrial development, cross-border cooperation, regional problems, logistics, environmental stress, industrial integration, export potential.

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning eng janubiy qismida joylashgan bo'lib, uning iqtisodiy geografik o'рни hududning ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Hududning tabiiy resurslari, transport tarmoqlari, chegaradosh davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar viloyat iqtisodiyotining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy omillarini chuqur tahlil qilish zarur. Surxondaryo viloyati o'zining o'ziga xos geosiyosiy va iqtisodiy-geografik o'рни bilan nafaqat O'zbekistonda balki butun Markaziy Osiyoda strategik ahamiyatga ega. Viloyatning Afg'oniston, Tojikiston va Turkmaniston bilan chegaradoshligi, xalqaro transport koridorlari chorrahasida joylashganligi ham muhim ahamiyatga ega. Viloyatning uch davlat bilan chegaradoshligi va mamlakatning eng janubida joylashganligi Janubiy Osiyo bozorlariga chiquvchi asosiy "darvozasi"ga aylantiradi. Ayniqsa, global logistika zanjirlari o'zgarayotgan hozirgi sharoitda, Surxondaryoning tranzit salohiyati va transchegaraviy aloqalari viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va aholi turmush darajasini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

Hozirgi globallashuv sharoitida hududlarning iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy-geografik o'rin muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, chegaradosh hududlarning xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdagi o'рни yuqori hisoblanadi. Surxondaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining eng janubiy hududi bo'lib, Afg'oniston bilan bevosita chegaradoshligi, Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlarini bog'lovchi transport yo'llari mavjudligi bilan ajralib turadi. Mazkur omillar viloyat sanoatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Surxondaryo viloyati respublikaning janubida joylashgan bo'lib, shimolda Qashqadaryo viloyati, sharqda Tojikiston Respublikasi, g'arbda Turkmaniston va janubda Afg'oniston bilan chegaradoshdir. Viloyatning ma'muriy markazi Termiz shahri hisoblanadi. Hududning qulay geografik o'рни uni Markaziy Osiyoni Janubiy Osiyo bilan bog'lovchi muhim transport tuguniga aylantirgan. Termiz xalqaro logistika markazi, temir yo'l va avtomobil yo'llari orqali yuk tashish imkoniyatlari sanoatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Chegaraoldi iqtisodiy-geografik omillarining sanoat rivojlanishidagi o'рни viloyati iqtisodiyotida sanoat muhim o'rin egallaydi. Hududda yoqilg'i-energetika, oziq-ovqat, qurilish materiallari, yengil va kimyo sanoati tarmoqlari rivojlangan. Chegaraoldi iqtisodiy-geografik o'rinning sanoat rivojlanishiga ta'siri quyidagi



yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: Afg'oniston va boshqa qo'shni davlatlar bilan tashqi savdo aloqalarining rivojlanishi; Termiz xalqaro savdo markazi orqali eksport-import hajmining ortishi; Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarining kengayishi; Tabiiy gaz, neft, ohaktosh, gips va boshqa foydali qazilmalardan samarali foydalanish; Transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi; Sanoat zonalar va erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining kengayishi. Shuningdek, viloyatning tranzit salohiyati eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish va yangi korxonalar tashkil etish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Surxondaryo viloyatida sanoat salohiyati yuqori bo'lishiga qaramay, ayrim muammolar mavjud: Sanoatda yuqori texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi; Transport-logistika infratuzilmasining ayrim hududlarda rivojlanmaganligi; Investitsiya hajmining tumanlar kesimida notekis taqsimlanishi;

Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash darajasining pastligi; Energetika va suv resurslari bilan bog'liq muammolar; Geosiyosiy vaziyat va chegaraoldi hududlariga xos xavfsizlik omillari. Surxondaryo viloyati sanoatini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish korxonalarini ko'paytirish; Transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish; Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan sanoat klasterlarini rivojlantirish;

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish; Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada takomillashtirish; Eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan ishlab chiqarishlarni kengaytirish. Xulosa: Surxondaryo viloyatining chegaradosh iqtisodiy-geografik o'rne hudud sanoati rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Viloyatning qulay transport-geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va tashqi iqtisodiy aloqalari sanoatning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, infratuzilma, investitsiya va texnologik muammolarni bartaraf etish orqali hududning sanoat salohiyatidan yanada samarali foydalanish mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soliyev A.S. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2021.
2. Mamatqulov M., Raxmatullayev O. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari.





4. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarni kompleks rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari.

